“Autosanoat Agro Lizing” MChJda 2025 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

HISOBOT

I. Komplaens tuzilmasi

“UzAuto Commercial Vehicles Management” MChJ yagona ishtirokchi(O‘zavtosanoat AJ)sining 2025 yil 16 sentyabrdagi 16-sonli hamda “Autosanoat Agro Lizing” MChJning 2022 yil 03 oktyabrdagi 17i/ch-sonli buyrug‘iga asosan tashkil etilgan. Jamiyatning 2023 yil 04 oktyabrdagi 31i/ch-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Komplaens xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga binoan komplaens xizmati jamiyatning tarkibiy tarmog‘i hisoblanib, bevosita O‘zavtosanoat” AJning Komplaens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish Departamentiga hisobot beradi.

Jamiyat buyrug‘i bilan tasdiqlangan shtat jadvaliga binoan bir nafar shtat birligi - komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxasis belgilangan.

Nizomga binoan, komplaens xizmati Jamiyat faoliyatida huquqbuzarliklar, korrupsiya va iqtisodiy talon-torojliklarni sodir etilishi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni tahlil qilib, ularning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilaydi hamda hamkorlar bilan tuzilgan kelishuvlarda komplaensga oid talablarini ijro etilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, moliya va iqtisodiy soha, xarid tizimi, faoliyat samaradorligi, kadrlar siyosati, marketing sohasi, komplaensga oid talablar hamda jamiyat faoliyatiga doir boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha profilaktik tadbirlar, monitoring va o‘rganishlar amalga oshirishdan iborat.

II. Siyosat va tartib taomillar (ichki hujjatlar) bo‘yicha.

Jamiyatda 04.10.2023 yildagi 31i/ch-sonli buyruq bilan tasdiqlangan jami 22 ta komplaensga oid siyosat va tartib-taomillar mavjud.

Shuningdek, jamiyatning 29.12.2023 yildagi 55 i/ch-sonli buyrug‘i bilan xarid yo‘nalishi bo‘yicha “Tovarlar(ish va xizmatlar)ni xarid qilish to‘g‘risida”gi Nizomi tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 05.06.2024 yilda qabul qilingan O‘RQ-931-sonli (06.12.2024 yilda kuchga kirgan) “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda amaliyotda biznes xamkorlarni tekshirish, korrupsiyaviy

xavf-xatarlarni baholash, xizmat tekshiruvini amalga oshirish va ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish jarayonlarini to‘laroq amalga oshirish maqsadida komplaens nazoratiga oid bir qator mavjud hujjatlarga Jamiyatning 2025 yil 12 dekabrdagi 054 i/ch-sonli buyrug‘iga binoan tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan:

- “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha siyosati” va uni amalga oshirish tartibi;
- “Sovg‘alar va mehmondo‘stlik xarajatlari bo‘yicha siyosati” va uni qo‘llash tartibi;
- “Xayriya va tijorat homiyligi bo‘yicha siyosati” hamda uni amalga oshirish tartibi;
- “Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish siyosati” hamda uni qo‘llash tartibi;
- “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”;
- “Xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi;
- “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma”.

Yuqorida qayd qilingan hujjatlarga o‘zgartirishlar jamiyat bosh direktori o‘rinbosarlari hamda bo‘lim boshliqlari bilan birgalikda amalga oshirildi va kelasi 2026 yil davomida jamiyatning barcha xodimlariga o‘qish va treninglar orqali rejali ravishda etkaziladi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

“Autosanoat Agro Lizing” MChJ tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar bitta boshqarma (Marketing (lizingga berish uchun texnika xaridi) va monitoring bo‘limlaridan iborat) va oltita (Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi, Moliya bo‘limi, Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va tashkiliy masalalar bo‘limi(xo‘jalik ehtiyojlari uchun zarur predmetlar xarid vazifasi yuklatilgan), Xodimlar va ish yuritish bo‘yicha mutaxassis hamda Yuridik bo‘lim) bo‘limlar bo‘yicha tahlil qilingan bo‘lib, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxati va korrupsiyaga qarshi kurash dasturi (“Yo‘l xaritasi”) platformaga yuklangan.

Jami baholangan jarayonlar soni 29 ta.

Aniqlangan xavflar: yuqori (0), o‘rta (8 ta) va past (21 ta) ni tashkil etgan.

O‘rta xavfli jarayonlar:

Marketing va monitoring boshqarmasi – Jamiyat raxbariyati tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tahlil qilishda jamiyat manfaatlariga zid ravishda qarorlar chiqarish hamda lizingga berilgan texnikalarning haqiqiy holatini monitoring qilish jarayonida ularning haqiqiy texnik holatini yashirish,

Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi – lizing to‘lovlari undirilishi hisobi va nazoratini olib borilishini ta'minlash jarayonida mansab harakatsizligiga yo‘l qo‘yilishi,

Moliya bo‘limi – Jamiyat filiallari tomonidan lizingga texnika berish bo‘yicha taqdim qilingan hujjatlar to‘plamining o‘rnatilgan tartibga mos kelishini va to‘g‘riligini tahlil qilish jarayonida, to‘liq o‘rganilmagan ma'lumotlar asosida biznes-reja tuzilishi oqibatida jamiyat iqtisodiy ahvoli pasayishi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va tashkiliy masalalar bo‘limi(xo‘jalik ehtiyojlari uchun zarur predmetlar xarid vazifasi yuklatilgan) – Jamiyat xo‘jalik ehtiyojlari uchun xaridlarni amalga oshirish, ularning belgilangan tartibda bajarilishi ta'minlash jarayonida sodir etilgan qoidabuzarlikларn yashirish,

Xodimlar va ish yuritish bo‘yicha mutaxassis – Jamiyat xodimlarini ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish jarayonida sodir etilgan qoidabuzarliklarni yashirish,

Yuridik bo‘limi tomonidan – shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini tahlil qilish, Jamiyatning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy talablarga rioya qilinishini nazorat qilish jarayonida sodir etilgan qoidabuzarliklarni yashirishda deb baholangan.

Kamaytirish tadbirlari ijrosi: “Autosanoat Agro Lizing” MChJ bosh direktori tomonidan 2025 yilga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi 10 ta banddan iborat holda tasdiqlangan. Mazkur dastur belgilangan amalga oshirish mexanizmlari asosida, ijro uchun mas'ul xodimlar tomonidan belgilangan muddatlarda bajarilgan.

Shuning bilan birga, baholash natijasida aniqlangan o‘rta xavfli jarayonlarni amalga oshirilishida xavflarni kamaytirish maqsadida jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ichki hujjatlar bilan 2025 yil davomida har chorakda jamiyat xodimlarini o‘qitish ishlari olib borildi.

Shuningdek, jamiyatning 12 nafar xodimlari 2025 yil iyul oyida o‘tkazilgan davlat xizmatchilari uchun “Davlat xizmatida xalollikni ta'minlash” mavzusidagi 24 soatlik maxsus o‘quv kursida qatnashib sertifikat olindi.

Jamiyatning vakolatli shaxslari tomonidan qaror qabul qilinishi jarayonlarini ochiqligini ta'minlash maqsadida, qarorlar tegishli boshqa bo‘lim xodimlari ishtirokida qabul qilinishi yo‘lga qo‘yildi.

2024 yilga nibatan solishtirish:

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga binoan 2024 yilda baholangan jarayonlar soni 70 tani tashkil qilgani holda, 2025 yilga

baholash zarurati bo‘lmagan jarayonlar kamaytirilib jami 29 ta jarayon baholanganligi sababli, 2024 yilga nisbatan 41 taga kam baholangan.

Shundan, yuqori xavflar 2024 yilda 7 tani tashkil qilgan bo‘lib, 2025 yilda yuqori xavflar aniqlanmagan.

O‘rta xavflar 2024 yilda 2 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2025 yilda yuqori xavflar bartaraf etilib o‘rta xavfga o‘tkazilganligi sababli 8 tani tashkil qilgan va 2024 yilga nisbatan 5 taga ko‘p.

Past xavflar deb baholangan jarayonlar 2024 yilda 61 tani tashkil qilgan bo‘lib, baholash zarurati bo‘lmagan jarayonlar kamaytirilganligi sababli 2025 yilda 21 tani tashkil etgan.

Jamiyat tomonidan tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ichki hujjatlar bilan jamiyat xodimlariga 2024 yil davomida har oyda o‘qish ishlari olib borildi va 2025 yilda har chorakda davom etdi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar:

1. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Jamiyatda 2025 yil boshida 33 nafar xodim bo‘lib, barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklarasiyalari to‘ldirib topshirilgan.

Ushbu deklarasiyalar o‘rganib chiqilishi natijasida, ichki audit xizmati auditorlik firmasining ta'sischisi ekanligi va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holati yuzaga kelishi mukinligi ma'lum bo‘ldi.

Mazkur holat, jamiyatning odob-axloq komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqildi va jamiyatning ichki audit xizmati auditori yuridik shaxs (audit tashkiloti) ta'sischisi ekanligi sababli unga tashkilotdagi o‘z ulushini realizasiya qilish bo‘yicha taklif berildi. Shu muddat davomida bajarilmasa uning bilan mehnat shartnomasini bekor qilish yuzasidan qaror qabul qilingan va komissiyaning mazkur qarori bajarilmaganligi sababli ushbu auditor bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan.

Shuning bilan birga, xodimlar tomonidan to‘ldirilgan deklarasiyalarda qayd qilingan ma'lumotlar ishga kirish vaqtida taqdim qilingan ma'lumotlarda qayd qilinganlari bilan birga o‘rganib chiqilganda, jami 12 ta holatda xodimlarning yaqin qarindoshlari o‘z korxona va tashkilotlarida ta'sischi ekanligi, biroq jamiyat bilan iqtisodiy va boshqa masalalar bo‘yicha aloqasi bo‘lmaganligi sababli, odob-axloq komissiyasi tomonidan ahamiyatsiz deb topildi.

Jamiyatga 2025 yil davomida jami 13 nafar xodim ishga qabul qilingan. Mazkur nomzodlar tomonidan lavozimga qabul qilishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi deklerasiyalari to‘ldirildi va ushbu to‘ldirilib taqdim etilgan manfaatlar to‘qnashuvi

deklarasiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan o‘rganishlar natijasida manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanmadi.

Shuni qayd qilish kerakki, 2024 yil davomida xodimlarning o‘zi va yaqin qarindoshlari faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarida mavqelariga aniqlik kiritilmagan.

2025 yilda bu holatga aniqlik kiritilishi natijasida 1 nafar xodimning o‘zi audit firmasining ta'sischisi ekanligi hamda 12 nafar xodimning yaqin qarindoshlari o‘z korxona va tashkilotlarida ta'sischi ekanligi aniqlanib odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqildi va tegishli xulosa berildi.

2.Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish:

Jamiyat tomonidan, lizing oluvchilarga etkazib berish uchun qishloq xo‘jaligi texnikalari asosan "TOSHKENT-AGRO-TRAKTOR" MChJ, “Uz Claas Agro” MChJ, "TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI" MChJ va "AGROMASH-ELIT" MChJ korxonalaridan xarid qilingan.

“Autosanoat Agro Lizing” mas'uliyati cheklangan jamiyatining 04.10.2023 yildagi 31i/ch-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish prosedurasi”ning 1.6-bandiga binoan, mazkur prosedura “Yuridik shaxs Kompaniya(Jamiyat)ga tegishli bo‘lsa yoki Kompaniya nazoratida bo‘lsa, rasmiy maxsus axborot portali (maydoncha) orqali amalga oshirilishi sharti bilan elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida o‘tkazilgan xaridlar, yagona etkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan xaridlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilinayotgan bo‘lsa tadbiq etilmasligi ko‘zda tutilgan;

Shuningdek, 1.7-bandiga binoan elektron do‘kon va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha kontragentlar tekshirilmasligi qayd qilingan.

Jamiyat tomonidan elektron do‘kon va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha tuzilgan barcha shartnomalarda korrupsiyaga qarshi shartlar nazarda tutilgan;

Hisobot yili davomida kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalar bekor qilingan holatlar bo‘lmagan.

Kontragentlarni tekshirish

"O‘zavtosanoat" AJ boshqaruvining 27.09.2021 yildagi 13-01-10-33 sonli majlis bayonnomasiga asosan, “O‘zavtosanoat” AJ va uning tarkibiy korxonalari tomonidan hukumatning tegishli topshiriqlaridan kelib chiqqan holda qishlok xo‘jaligi mashinasozligi korxonalarida ishlab chiqarishni kayta tiklash hamda korxonalarning

og‘ir moliyaviy holatini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligi texnikasi iste'molchilarining moliyaviy imkoniyatlari cheklangan-ligini inobatga olib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan texnika xaridini moliyalashtirish faoliyatini samarali amalga oshirish uchun “Autosanoat Agro Lizing” mas'uliyati cheklangan jamiyat tashkil etilgan.

Shu sababli, lizing oluvchilarga etkazib berish uchun qishloq xo‘jaligi texnikalari asosan "TOSHKENT-AGRO-TRAKTOR" MChJ, “Uz Claas Agro” MChJ, "TOSHKENT TRAKTOR ZAVODI" MChJ va "AGROMASH-ELIT" MChJ korxonalaridan xarid qilingan.

Jamiyat tomondan tasdiqlangan “Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish prosedurasi”ga amal qilingani holda ushbu korxonalardan kompleks tekshirish anketalari olingan va o‘rganib chiqilib skrining hisobotlari tuzilgan.

Shuning bilan bir qatorda, “Autosanoat Agro Lizing” MChJ va uning joylardagi mintaqaviy filiallari uchun 2025 yil davomida zarur bo‘lgan xarajatlarni (qishloq xo‘jaligi texnikalarini mintaqaviy filiallarga etkazib berish uchun logistika xarajatlari, kanselyariya tovarlari, xizmat mashinalari uchun ehtiyot qismlar va xo‘jalik mollari) amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniniga binoan elektron do‘konlar orqali shartnomalar tuzilgan.

Ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tekshirish

“Autosanoat Agro Lizing” MChJga 2025 yil davomida ishga qabul qilish uchun jami 29 ta nomzodlar tomonidan tegishli hujjatlar taqdim qilingan bo‘lib, shundan jamiyatning xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi hamda komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasi va jamiyat komissiyasi tomonidan ishga qabul qilish uchun nomzod bilan o‘tkazilgan suhbat natijasida tuzilgan bayonnomalar bo‘yicha jami 13 ta nomzodlar bo‘yicha ijobiy xulosalar berilgan.

Ijobiy xulosalar berilgan va 2025 yil davomida jamiyatga ishga qabul qilingan ushbu xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgani holda mehnat shartnomalari tuzilgan.

2024 yil 18 nafar nomzodlar tekshirilgan bo‘lsa 2025 yilda 29 nafar ishtirok etgan nomzodlar tekshirilgan.

V. O‘qitish va kommunikasiya

1. O‘qitish rejasi tahlili:

Jamiyatda 2025 yilga tasdiqlangan umumiy o‘qitish rejasiga binoan har chorakda jamiyat tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi 4 ta siyosat va nizomlar bo‘yicha o‘qitish ishlari belgilangan bo‘lib, yil

davomida o‘qish ishlari to‘liq amalga oshirildi va o‘tkazilgan o‘qish yakunlari bo‘yicha bayonnomalar va o‘quv varaqlari rasmiylashtirilgan.

Jumladan: jamiyat tomonidan qabul qilingan “Sanksiyalar va eksport nazorati” siyosati, “Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi va “Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi bo‘yicha jamiyatning yuridik bo‘lim boshlig‘i, xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi hamda komplaens xizmati mutaxassisi bilan birgalikda ZOOM dasturi *(jamiyat xodimlari barcha viloyatlardagi mintaqaviy filialllarda faoliyat yuritadi)* orqali o‘qishlar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplaens-nazorat” tizimidagi mas'ul xodim O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan 2024 yil dekabr - 2025 yil yanvar oylarida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash” mavzusidagi malaka oshirish kursida qatnashib sertifikat olgan.

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish va “komplaens-nazorat” tizimidagi mas'ul xodim – komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis hamda Jamiyatning 11 nafar xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Xuquqni Muxofoza Qilish Akademiyasi tomonidan 2025 iyul oyida o‘tkazilgan “Davlat Xizmatida Xalollikni ta'minlash mavzusidagi 24 soatlik maxsus o‘quv kurslarida qatnashib, yakuni bo‘yicha sertifikatlar olishgan.

Shuning bilan bir qatorda, ikki nafar xodim, ya'ni jamiyatning yuridik bo‘limi boshlig‘i va matbuot kotibi 2025 yil 17 noyabrdan 27 noyabrga qadar Pragadagi Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti tomonidan taqdim etilgan “Xaridlar tizimi va tashkilotning korrupsiyaga qarshi siyosatidagi manfaatlar to‘qnashuvi” kursida o‘qib sertifikatlar olgan.

2. Kommunikasiya va targ‘ibot:

“Autosanoat Agro Lizing” MChJ bosh direktori tomonidan “Qishloq hayoti” gazetasining 2025 yil 11 dekabrdagi 49(9369)-sonida "Maqsadimiz – qishloq xo‘jaligi korxonalarini zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash mavzusidagi maqolasi e'lon qilindi.

Ushbu maqolada, rahbar tomonidan jamiyatda komplaens nazorati joriy qilinganligi hamda uzluksiz faoliyat ko‘rsatuvchi ishonch telefonlari mavjudligi va

xozirgi kunga qadar Jamiyat faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq birorta holat aniqlanmaganligi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolishi ma'lum qilingan.

“Autosanoat agro Lizing" MChJ bosh direktorining o‘rinbosari tomonidan Yoshlar radiokanalining "Davr" informasion dasturi orqali, jamiyatda Korrupsiyaga karshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumot berilgan.

“Autosanoat agro Lizing" MChJ bosh direktorining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati jamiyat xodimlariga 15.12.2025 yilda bo‘lib o‘tgan hay'at majlisi bayonnomasiga asosan etkazildi va mazkur yig‘ilishda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish holatlari ko‘rib chiqildi.

Targ‘ibot ishlari 2024 yilda bir marta radio orqali bajarilgan bo‘lib, 2025 yil hisobot davrida bir marta radio orqali va bir marta gazeta orqali amal oshirilgan.

VI. Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

1. “Autosanoat agro Lizing" MChJda jami 5 ta aloqa kanallari mavjud bo‘lib, quyidagilardan iborat:

1	instagram: avtosanoat_agro_lizing	instagramm
2	E-mail: info@aaleasing.uz	info
3	https://t.me/autosanoatagrolizing_bot	telegramm
4	https://aaleasing.uz/	rasmiy sayt
5	71-207-10-75	ishoch telefoni

2. Jamiyatning aloqa kanallari orqali 2025 yil davomida Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida ma'lumot va xabarlar kelib tushmagan.

Jamiyat devonxonasiga 2025 yil 18 dekabr xolatiga jami 390 ta murojaatlar korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklarga aloqasi bo‘lmagan ma'lumotlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlar jamiyatdagi murojaatlar bilan ishlashga mas'ul xodim tomonidan jamiyat rahbariyatiga taqdim etilgan va jamiyat mutaxassislari tomonidan tegishli tartibda ko‘rib chiqilgan.

VII. Monitoring va nazorat

Jamiyatda 2025 yil davomida komplaens yoki davlat organlari tashabbusi bilan **tadbirlar** o‘tkazilmagan.

Komplaens xizmati bosh mutaxassisi tomonidan jamiyatning **marketing bo‘limi** mas'ul xodimlari bilan ikki nafar biznes hamkorlardan olingan ma'lumotlar o‘rganib chiqilgan va ijobiy xulosalar berilgan;

Shuningdek, jamiyatning **xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi** bilan jamiyat tomonidan xodimlarga intizomiy jazo berilishi yuzasidan to‘rt marta o‘rganish o‘tkazilgan bo‘lib, o‘rganishlar natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy holatlar buzilishi bo‘yicha intizomiy jazo qo‘llanilganligi holatlari aniqlanmagan.

Jamiyatning **buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi** boshlig‘i bilan 2025 yil davomida hisob raqamidan xarajat qilingan mablag‘larning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha ikki marta o‘rganish o‘tkazilgan;

Shuning bilan birga, **xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi** va **buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi** xodimi bilan birga jamiyat xodimlari uchun amalga oshirilgan xizmat safari xarajatlari o‘rganib chiqilgan.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib, 2025 yilda jami o‘tkazilgan 9 ta monitoring natijalariga ko‘ra xato va kamchiliklar hamda jamiyat faoliyatiga moliyaviy ta'sir qiluvchi holatlar aniqlanmagan.

Jamiyatda 2025 yil davomida 9 ta, 2024 yilda esa 6 ta o‘rganish ishlari o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlarga muvofiq 2025 yilda monitoring ishlari 2024 yilga nisbatan 3 taga ko‘p amalga oshirilgan.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Xizmat tekshiruvlari bo‘yicha. Jamiyatda xizmat tekshiruvlari o‘tkazish holatlari yuzaga kelmaganligi hamda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy holatlar hamda boshqa qoida buzarliklar bo‘yicha xabarlar kelib tushmaganligi sababli, xizmat tekshiruvlari o‘tkazilmagan.

Xizmat tekshiruvi natijalari bo‘yicha. Xizmat tekshiruvlari o‘tkazilmaganligi sababli ta'sir choralari qo‘llanilgan holatlar mavjud emas hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga materiallar yuborilmadi.

IX. Xulosalar

Xavflarni umumiy tahlili:

Jamiyat tomonidan 2025 yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqilgan hamda korrupsiya xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirilgan va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ishlab chiqilib jamiyat bosh direktori tomonidan tasdiqlangan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida qayd qilingan xavflarni kamaytirish borasida, yil davomida barcha xodimlarni jamiyatda qabul qilingan ichki hujjatlar asosida o‘qitish ishlari amalga oshirildi.

O‘qishlar davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etganligi va yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilanligi jamiyat xodimlariga etkazildi.

“Autosanoat Agro Lizing” MChJ bosh direktori tomonidan “Qishloq hayoti” gazetasining 2025 yil 11 dekabrdagi 49(9369)-sonida "Maqsadimiz – qishloq xo‘jaligi korxonalarini zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash mavzusidagi maqolasi e'lon

qilinib, unda rahbar tomonidan jamiyatda komplaens nazorati joriy qilinganligi hamda uzluksiz faoliyat ko‘rsatuvchi ishonch telefonlari mavjudligi va xozirgi kunga qadar Jamiyat faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq birorta holat aniqlanmaganligi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolishi ma'lum qilindi.

Shuning bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishi yuzasidan doimiy nazorat yuritildi.

Komplaens xizmati tomonidan o‘z vazifasini bajarish borasida, korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga amal qilib kelinmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Jamiyat tomonidan yil davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari va amaliyotdan kelib chiqqan holda, 2026 yilda quyidagi ustuvor takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

-Moliya va iqtisodiy sohada xavflarni oldini olish maqsadida xarajatlarni amalga oshirish jarayonida parallel ravishda olib borilayotgan nazoratni kuchaytirish.

-Jamiyat xodimlarini “Kaskad” usuli ta'lim jarayonini maxsus onlayn (yoki ichki elektron) “Modul” platforma asosida o‘qitishni, trening va seminarlarni tashkil etish hamda profilaktika tadbirlarini amalga oshirish.

-Jamiyatda 2025 yilda baholash jarayonlarida aniqlangan 8 ta o‘rta darajadagi xavflarni kelgusida past darajaga tushirish maqsadida quyidagi ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

-Komplaensga oid siyosatlar hukumat qarorlari talablariga muvofiq xamda xalqaro standartlar, eng yaxshi amaliyotlar va mahalliy qonunchilik talablariga moslashtirish orqali takomillashtirish.

-Xavfi yuqori sohalarda ichki audit o‘tkazish va tezkor tuzatish choralarini ko‘rish.

- Jamiyatga faoliyatiga ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini to‘liq joriy etish, uning ijrosini ta'minlash va boshqalardan iborat.

Komplaens xizmati bo‘yicha
bosh mutaxassis **U.Sultanboev**